


## X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2024- yil 1-sentabr holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 37 706 tani tashkil qildi. (2023- yil 1- sentabrga nisbatan 105,2 % ga ko‘pdir).

**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining  
2024- yil 1- sentabr holatiga iqtisodiy faoliyat  
turlari bo‘yicha taqsimlanishi**




Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 37,4 %), sanoat sohasida (22,2 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (9,2 %) va qurilishda (7,2 %) tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar**

|                              | 2023- yil<br>yanvar-sentabr | 2024- yil<br>yanvar- sentabr |
|------------------------------|-----------------------------|------------------------------|
| <b>Viloyat bo'yicha jami</b> | <b>3 614</b>                | <b>3 209</b>                 |
| Namangan shahar              | 909                         | 954                          |
| Mingbuloq                    | 254                         | 234                          |
| Kosonsoy                     | 215                         | 220                          |
| Namangan                     | 203                         | 123                          |
| Norin                        | 203                         | 181                          |
| Pop                          | 252                         | 254                          |
| To'raqo'rg'on                | 302                         | 154                          |
| Uychi                        | 231                         | 151                          |
| Uchqo'rg'on                  | 344                         | 256                          |
| Chortoq                      | 291                         | 204                          |
| Chust                        | 224                         | 238                          |
| Yangiqo'rg'on                | 186                         | 240                          |

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 954 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 256 ta, Pop tumani – 254 ta, Yangiqo'rg'on, tumanida – 240 ta, Chust tumani – 238 ta, Mingbuloq tumanida – 234 ta, Kosonsoy tumanida – 220 ta, Chortoq tumanida – 204 ta, Norin, tumanida – 181 ta, bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. To'raqo'rg'on, tumanida – 154 ta, Uychi tumani – 151 ta, Eng past ko'rsatkich Namangan tumanida 123 tani tashkil etdi.

**2024- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da**




2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 29,7 %, Uchqurg'on tumanida – 8,0 %, Pop tumanida -7,9 %, Yangiqo'rg'on tumanida -7,5 %, Chust tumanida – 7,4 % Mingbuloq tumanida – 7,3 % Kosonsoy tumanida -6,9 %, Chortoq tumanida -6,4 %, Norin tumanida – 5,6 %, va tashkil etdi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 74,3 % (2023- yil yanvar- sentabr oylarida 74,6 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 207,3 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 47,1 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 338,7 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 64,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning  
iqtisodiyotdagi ulushi**  
(2024- yil yanvar-sentabr oylari holatiga, % da)



**Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi**  
(2024- yil yanvar-sentabr)

| Iqtisodiy faoliyat turlari               | Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. soʻm | Jami hajmga nisbatan ulushi, % da |
|--|---|-----------------------------------|
| Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi | 22103,3   | 103,4                             |
| Sanoat                                   | 9447,0  | 109,8                             |
| Qurilish                                 | 3318,2  | 108,9                             |
| Chakana savdo                            | 15223,6   | 107,9                             |
| Yuk tashish, mln. tonna                  | 26,2  | 116,3                             |
| Yoʻlovchi tashish, mln. kishi            | 333,9   | 101,9                             |

2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
(%da)

|                              | Sanoat      | Qurilish    | Xizmatlar   | Investitsiyalar |
|------------------------------|-------------|-------------|-------------|-----------------|
| <b>Viloyat bo'yicha jami</b> | <b>43,5</b> | <b>93,2</b> | <b>75,1</b> | <b>76,3</b>     |
| Namangan shahar              | 61,5        | 86,4        | 49,7        | 81,7            |
| Mingbuloq                    | 27,7        | 100,0       | 85,4        | 28,3            |
| Kosonsoy                     | 44,9        | 86,3        | 81,3        | 84,8            |
| Namangan tuman               | 81,0        | 100,0       | 85,3        | 57,5            |
| Norin                        | 99,9        | 100,0       | 83,5        | 71,1            |
| Pop                          | 95,0        | 54,9        | 72,6        | 88,1            |
| To'raqo'rg'on                | 8,0         | 93,4        | 75,8        | 66,4            |
| Uychi                        | 73,0        | 91,0        | 81,8        | 90,5            |
| Uchqo'rg'on                  | 41,1        | 100,0       | 80,6        | 90,7            |
| Chortoq                      | 39,0        | 100,0       | 78,1        | 77,3            |
| Chust                        | 24,0        | 100,0       | 76,9        | 42,2            |
| Yangiqo'rg'on                | 100,0       | 98,7        | 85,6        | 83,0            |

Hududlar bo'yicha **Sanoat** sohasining yuqori ulushini Yangiqo'rg'on, (100,0 %) Norin tumanlari (99,9 %) hamda Pop (95,0 %) tumanlari tashkil etdi.

**Qurilishda** – Mingbuloq t, (100,0 %) Namangan t (100,0 %) Chortoq t, (100,0 %) Norin t, (100,0) Uchqo'rg'on (100,0 %), Chust (100,0 %) tumanlari tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasida** –Yangiqo'rg'on (85,6 %), Mingbuloq (85,4 %),Namangan t (85,3 %), Norin (83,5 %), tumanlari tashkil etdi.

**Investitsiyada** – Uchqo'rg'on (90,7 %), Uychi (90,5 %), Pop (88,1 %) Chortoq (90,5 %), Kosonsoy (84,8 %), Yangiqo'rg'on (83,0 %), tumanlarida yuqori ulushlarni tashkil etdi.